



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No3**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr.  
2026-yil, aprel.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeveva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                       |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....                                                                                                               | 21  |
| Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich                                                     |     |
| YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI .....                                                                       | 26  |
| Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi                                                                                                            |     |
| RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI .....                                                                                                        | 30  |
| Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich                                                                                                        |     |
| ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА .....                                                       | 34  |
| Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                                                              | 39  |
| Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi                                                                                                                   |     |
| СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....                                                                                                            | 44  |
| Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиλλαевна                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI .....                                       | 50  |
| Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich                                                                                                     |     |
| MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....                                                                                     | 57  |
| Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li                                                                                                     |     |
| RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI .....                                                                       | 62  |
| Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi                                                                                               |     |
| ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                                                                  | 68  |
| Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна                                                                                |     |
| FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....                                      | 74  |
| Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li                                                                                                            |     |
| AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT..... | 80  |
| Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich                                                                                                          |     |
| ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....                                                                           | 87  |
| Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich                                                                                                               |     |
| RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....                                                                                                     | 92  |
| G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li                                                            |     |
| DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE .....                                                                                                      | 104 |
| Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li                                       |     |



|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....                                   | 112 |
| Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....                | 119 |
| Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich                                                                                                |     |
| TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI .....                                                                                | 124 |
| Samadova Solik qizi, Normurodov Husan                                                                                                                   |     |
| TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... | 130 |
| Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li                                                                                    |     |
| ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....                                                                                                        | 137 |
| Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.                                                                                                          |     |
| XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....               | 141 |
| Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich                                                                                             |     |
| URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....                                                                         | 147 |
| Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi                                                                                        |     |
| IQTISODIY ATAMALARNING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....                                                                                  | 154 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....                                                                 | 158 |
| Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li                                                                                         |     |
| RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....                                                       | 164 |
| Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi                                                  |     |



# RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar:

**Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrası,  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qosimova Fazilat Sherzod qizi**

"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi  
ORCID: 0009-0002-4156-3742

**Abdumalikova Busalima Abduvali qizi**

"Menejment" fakulteti talabasi  
ORCID: 0009-0007-4254-1824

**Annotatsiya:** Ushbu maqola raqamli bank tizimlari va moliyaviy texnologiyalar (FinTech)ning an'anaviy bank institutlariga ko'p qirrali ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot O'zbekiston misolida 2021-2024-yillar davomida naqd pulsiz to'lovlar hajmi, internet-banking foydalanuvchilari soni, kredit portfeli sifati va bank sektorining umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasini empirik tahlil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli kanallarning jadal rivojlanishi, bir tomondan, operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, kiberxavfsizlik, tartibga solish va qayta malaka oshirish muammolarini keskinlashtirmoqda. Maqolada strategik hamkorlik va raqamli adaptatsiya mexanizmlari asosida an'anaviy banklar uchun amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** FinTech, raqamli transformatsiya, an'anaviy banklar, bank tizimi rentabelligi, foizsiz daromadlar.

**Abstract:** This article examines the multidimensional impact of digital banking systems and financial technologies (FinTech) on traditional banking institutions. Using Uzbekistan as a case study, it conducts an empirical analysis of the dynamics of cashless payment volumes, internet-banking user numbers, credit portfolio quality, and overall financial performance indicators of the banking sector over the period 2021-2024. The findings indicate that the rapid expansion of digital channels, on one hand, reduces operational costs and broadens financial inclusion, while on the other, intensifies challenges related to cybersecurity, regulation, and workforce reskilling. The article also advances practical recommendations for traditional banks grounded in mechanisms of strategic partnership and digital adaptation.

**Key words:** FinTech, digital banking, traditional banks, financial technologies, cashless payments, credit scoring, digital transformation, Uzbekistan.

**Аннотация:** В статье исследуется многогранное влияние цифровых банковских систем и финансовых технологий (FinTech) на традиционные банковские институты. На примере Узбекистана проводится эмпирический анализ динамики объема безналичных платежей, числа пользователей интернет-банкинга, качества кредитного портфеля и общих финансовых показателей банковского сектора за период 2021-2024 годов. Результаты свидетельствуют о том, что ускоренное развитие цифровых каналов, с одной стороны, снижает операционные издержки и расширяет финансовую инклюзию, с другой — обостряет проблемы кибербезопасности, регулирования и переподготовки кадров. В статье также предложены практические рекомендации для традиционных банков на основе механизмов стратегического партнёрства и цифровой адаптации.

**Ключевые слова:** FinTech, цифровой банкинг, традиционные банки, финансовые технологии, безналичные платежи, кредитный скоринг, цифровая трансформация, Узбекистан.



## KIRISH

Oxirgi o'n yillikda moliya sektori texnologik o'zgarishlarning misli ko'rilmagan to'liqliniga duch keldi, desak to'g'ri bo'ladi. Raqamli platformalar hamda iqtisodiyotning yuksalishi, smartfonlarning ommaviy tarqalishi va bulutli hisoblash infratuzilmasining arzonlashuvi birgalikda yangi moliyaviy xizmat ko'rsatuvchilar sinfini – "FinTech kompaniyalari" – paydo bo'lishiga sharoit yaratdi. Ushbu kompaniyalar an'anaviy banklar uchun avval tushunarsiz bo'lgan bozor segmentlariga: smartfon foydalanuvchilari, qishloq joylardagi banklashtirish darajasi past bo'lgan aholi, kichik tadbirkorlar kabi sektorlarga chuqur kirib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ham ushbu jarayon davlat siyosati tomonidan faol ravishda qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son Farmoni<sup>1</sup> asosida ishlab chiqilgan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Ushbu strategiyada bank xizmatlarining raqamli kanallar orqali ko'rsatilishini oshirish, FinTech kompaniyalari bilan hamkorlikni institutsionallashtirish va kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash kabi aniq maqsadlar ko'rsatilgan.

Texnologik innovatsiyalar bu shunchaki qulaylik emas, balki ular an'anaviy bank modelining asosiy elementlarini qayta shakllantiradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi, O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalar joriy etilishining empirik ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida an'anaviy banklarga ta'sir mexanizmlarini aniqlash, ijobiy va salbiy tomonlarini baholash hamda strategik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

FinTech va an'anaviy banklar munosabatini o'rganuvchi adabiyotlar tobora murakkablashib bormoqda. Dastlabki ishlar asosan innovatsiyaning banklardagi xarajat tejash imkoniyatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar ushbu o'zgarishlarning raqobatbardoshlik, tartibga solish va tizimli barqarorlik kabi kengroq o'lchamlarini qamrab olmoqda.

Xorijiy olimlardan Claessens va boshqa olimlar (2018) BIS Quarterly Review uchun tayyorlangan tahliliy maqolasida dunyo miqyosida FinTech kredit bozorlarining o'sish dinamikasini, haydovchi omillarini va siyosat muammolarini batafsil ko'rib chiqdi. Ularning xulosasiga ko'ra, FinTech kompaniyalar dastlab an'anaviy banklarni to'liq siqib chiqarishni maqsad qilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan aksariyati hamkorlik strategiyasini afzal ko'rdi, chunki mustaqil miqyosni kengaytirish jiddiyoq iqtisodiy to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir xorijiy olimlardan Philippon raqamli texnologiyalarning moliyaviy vositachilik xarajatlarini kamaytirish salohiyatini milliy iqtisodiyot darajasida o'rganib, AQSh misolida bu imkoniyat operatsion samaradorlikni 30 foizgacha oshirish ekvivalentiga tengligini isbotladi. Ushbu natija rivojlanayotgan bozorlar uchun ham dolzarb bo'lib, moliyaviy vositachilik narxining pasayishi bevosita kreditga kirishimlilikni kengaytiradi.

Buchak va boshqa olimlar (2018) esa FinTechning "soya banklar" – ya'ni tartibga solishdan qisman ozod bo'lgan moliya vositachilari tizimi bilan kesishgan nuqtasini o'rganib, texnologik innovatsiyaning nazorat tafovutlaridan foydalanish bilan qo'shilganda bank tizimiga qanday tizimli risk keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu natijalar regulyatorlar uchun FinTechni tartibga solishda me'zon sifatida qaralishi zarur bo'lgan asosni tashkil etadi.

Yana bir xorijiy olim Vives (2019) esa raqamli texnologiyalar bank raqobat tuzilmasini o'zgartirishining to'rtta asosiy mexanizmini aniqladi: narx shaffofligining oshishi, o'tish xarajatlarining kamayishi, mahsulot tabaqalanishining kuchayishi va miqyos iqtisodiyotining yangi shakllanishi. Ushbu ko'p o'lchamli tahlil an'anaviy banklarning raqamli raqobatga faqat texnologik, balki strategik javob berishi zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston bank tizimi va uning iqtisodiyotdagi o'rni ko'plab mahalliy olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Z. Abdullayeva banklarni moliyaviy vositachilik institutlari sifatida ko'rib chiqib, ularning kredit va investitsiya jarayonlaridagi rolini asoslab bergan. A.V. Vaxabov esa bank tizimining bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan. Yana bir mahalliy olimlardan biri, Y.A. Abdullayev O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va bank ishini tahlil qilishning metodologik asoslarini tadqiq etgan olim hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlarida banklarning moliya bozoridagi barqarorligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlarning o'rni alohida ta'kidlanadi, bu esa bugungi kundagi raqamli transformatsiya jarayonlari uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar bir butun sifatida shuni ko'rsatadiki, FinTechning an'anaviy banklarga ta'siri ko'p qirrali: u bir vaqtning o'zida raqobat bosimi, hamkorlik imkoniyatlari va tartibga solish muammolarini o'z ichiga oladi. Biroq, O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyotida bu dinamikaning qanday namoyon bo'lishi alohida empirik tadqiqotni taqozo etadi, bu esa mazkur maqolaning asosiy ilmiy hissasini tashkil etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalar va FinTech ta'sirini empirik tahlil qilish usuli qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi quyidagilardan iborat:

1. Empirik Tahlil: 2021–2024-yillar davomida O'zbekiston banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (aktivlar, kreditlar, kapital, depozitlar va sof foyda) va naqd pulsiz to'lovlar hajmi tahlil qilindi.

2. Moliyaviy Ko'rsatkichlar: Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va raqamli transformatsiya ta'siri o'rganildi.

3. Raqamli Texnologiyalar Integratsiyasi: FinTech kompaniyalarining bank tizimiga integratsiyasi va raqamli xizmatlarning ta'siri baholandi.

4. Strategik Tavsiyalar: Banklar uchun raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi bank tizimining raqamli transformatsiya jarayonini tahlil qilish va tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank sektorida FinTech va raqamli texnologiyalarning ta'siri nafaqat xizmat ko'rsatish uslubini, balki banklarning moliyaviy tuzilmasini ham o'zgartira boshladi. Raqamli kanallar orqali mijozlarga yaqinlashish imkoniyati ortishi bilan birga, kredit va depozit jalb qilish jarayonlari ham yangi shakl kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy banklarning hozirgi moliyaviy salohiyatini baholash – raqamli transformatsiya qanday zamin ustida kechayotganini tushunish uchun zaruriy qadam hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston tijorat banklarining aktiv, kredit, kapital va depozit ko'rsatkichlari bo'yicha tarkibiy holati aks ettirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar sektordagi resurslar taqsimoti va raqobat muhitini baholashga hamda FinTech ta'sirini moddiy asosda o'lchashga asos bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2026-yil 1-aprel holatiga (banklar kesimida) ma'lumot (mlrd so'm)<sup>2</sup>

| T/r  | Bank nomi                     | Aktiv   |               | Kredit  |               | kapital |               | Depozit |               |
|------|-------------------------------|---------|---------------|---------|---------------|---------|---------------|---------|---------------|
|      |                               | summa   | ulushi foizda | summa   | ulushi foizda | summa   | ulushi foizda | summa   | ulushi foizda |
| Jami |                               | 604 461 | 63%           | 415 581 | 67%           | 83 255  | 59%           | 221 754 | 51%           |
| 1    | O'zmilliybank                 | 145 107 | 15%           | 108018  | 17%           | 20 572  | 15%           | 53 386  | 12%           |
| 2    | Agrobank                      | 111 254 | 12%           | 86 547  | 14%           | 13 811  | 10%           | 34 868  | 8%            |
| 3    | SQB                           | 104 448 | 11%           | 63 307  | 10%           | 12 380  | 9%            | 32 274  | 7%            |
| 4    | Asaka bank                    | 62 522  | 7%            | 40 741  | 7%            | 8 284   | 6%            | 22 447  | 5%            |
| 5    | Xalq banki                    | 54 169  | 6%            | 35 552  | 6%            | 10 949  | 8%            | 28 183  | 6%            |
| 6    | Biznesni rivojlantirish banki | 38 866  | 4%            | 24 915  | 4%            | 5 438   | 4%            | 15 469  | 4%            |
| 7    | Aloqa bank                    | 34 254  | 4%            | 20 703  | 3%            | 3 965   | 3%            | 15 982  | 4%            |
| 8    | Mikrokreditbank               | 32 299  | 3%            | 21 180  | 3%            | 5 757   | 4%            | 10 335  | 2%            |
| 9    | Turon bank                    | 21 543  | 2%            | 14 617  | 2%            | 2 100   | 1%            | 8 810   | 2%            |

Yuqoridagi 1-jadval O'zbekiston tijorat banklarining to'rtta asosiy moliyaviy ko'rsatkichi bo'yicha tarkibiy manzarani aks ettirib, raqamli transformatsiya jarayonida an'anaviy banklarning qaysi pozitsiyadan harakat qilayotganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar sektorning FinTech platformalari bilan raqobat qilish uchun yetarli moliyaviy salohiyatga ega ekanligini, biroq ayni vaqtda katta tarkibiy yukni ham ko'tarayotganini namoyon etadi.


Davlat ulushi mavjud bo'lgan yuqoridagi 9 nafar bankning jami aktivlardagi 63 foizlik va kredit portfelidagi 67 foizlik ulushi diqqatga sazovordir. Raqamli bank tizimlari nuqtayi nazaridan bu raqamlar ikki tomonlama ma'noga ega. Bir tomondan, yirik davlat banklarining katta resurs bazasi ularga IT infratuzilmasiga sarmoya kiritish va raqamli xizmatlarni keng miqyosda joriy etish uchun moliyaviy imkon yaratadi. Boshqa tomondan, xuddi shu yirik tuzilma ko'pincha raqamli o'zgarishlarga moslashishni sekinlashtiruvchi byurokratik og'irlik sifatida namoyon bo'ladi – bu esa FinTech kompaniyalarining chaqqon va arzon raqamli xizmatlar bilan bozorni tez egallash imkonini kengaytiradi.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki asosiy sayti Statistika bo'limining alohida bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari bo'limida joylashtirilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.



Alohida banklarga nazar tashlanganda, O'zmilliybank aktiv (145 107 mlrd so'm, 15%) va kredit (108 018 mlrd so'm, 17%) bo'yicha sektor yetakchisi sifatida ko'zga tashlanadi. Biroq, hajmning kattaligi raqamli raqobatbardoshlikni o'z-o'zidan ta'minlamaydi. Agrobank (12%) va O'zsanoatqurilishbank (11%) kabi yirik banklar kredit bozorida kuchli o'rinni egallab turgan bo'lsa-da, Payme, Click va Uzum Bank kabi FinTech platformalar aynan shu banklarning an'anaviy mijozlar segmentiga – mayda to'lovlar, maishiy xizmatlar, iste'mol kreditlari – kirib bormoqda. Bu esa mazkur banklarning raqamli strategiyasini yangilash zaruratini yanada dolzarb qiladi.

Kapital va depozit ko'rsatkichlari kesimida Xalq bankining kapital ulushi (8%) aktivlar ulushidan (6%) yuqori ekanligi nisbatan mustahkam moliyaviy poydevorni anglatadi – bu esa raqamli infratuzilmaga uzoq muddatli investitsiya kiritish uchun qulay shart-sharoit hisoblanadi. Shu bilan birga, depozit bozorida xususiy va xorijiy banklar sektorning 49 foizini egallayotgani e'tiborga loyiq – bu raqam FinTech xizmatlari tufayli muqobil jamg'arma vositalariga o'tayotgan aholi qatlami borligidan ham dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Davlat ulushi mavjud banklar ulushi

Ushbu rasmda 1-jadvaldagi ma'lumotlarni diagramma shakliga keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, davlat ulushi bor banklar orasida O'zmilliybank 24% lik ko'rsatkich bilan hajm bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarni yirik tarmoqlarga ega bo'lgan Agrobank (18%) va O'zsanoatqurilishbank (17%) egallagan bo'lib, ular tizimning asosiy tayanchlari hisoblanadi.

Bemalol aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga ta'siri nafaqat xizmat ko'rsatish tezligi yoki qulayligida, balki banklarning moliyaviy natijalarida ham tobora aniqroq iz qoldirmoqda. Xususan, foizsiz daromadlar tarkibining kengayishi – to'lov komissiyalari, mobil bank xizmatlari to'lovlari orqali – FinTech integratsiyasining bevosita moliyaviy samarasi sifatida baholanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi 2-jadvalda O'zbekiston bank tizimining 2025 va 2026-yillarning birinchi choragidagi daromad va xarajat ko'rsatkichlari taqqoslab berilgan bo'lib, bu ma'lumotlar raqamli o'zgarishlarning banklarning rentabelligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini baholash imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval. Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

| Bank tizimi daromad va xarajatlari | 01.04.2025 y | 01.04.2026 y/ |
|------------------------------------|--------------|---------------|
| Foizli daromadlar                  | 28 898       | 35 079        |
| Foizli xarajatlar                  | 20 079       | 25 196        |
| <b>Foizli marja</b>                | <b>8 819</b> | <b>9 882</b>  |
| Foizsiz daromadlar                 | 16 580       | 22 781        |

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki asosiy sayti Statistika bo'limining alohida bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari bo'limida joylashtirilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.



|                                                                                         |              |              |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| Foizsiz xarajatlar                                                                      | 5 033        | 7 540        |
| Operatsion xarajatlar                                                                   | 6 123        | 7 767        |
| <b>Foizsiz daromad (zarar)</b>                                                          | <b>5 424</b> | <b>7 473</b> |
| Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash                 | 8 330        | 8 076        |
| Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash                  | 1 821        | 3 067        |
| Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)                                               | 4 091        | 6 212        |
| Foyda solig'ini to'lash xarajatlari                                                     | 672          | 688          |
| <b>Sof foyda (zarar)</b>                                                                | <b>3 419</b> | <b>5 524</b> |
| <b>Bank tizimi daromadlik ko'rsatkichlari</b>                                           |              |              |
| Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)                     | 2,1          | 2,6          |
| Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)                      | 11,6         | 16,0         |
| Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati                                       | 4,4          | 4,1          |
| Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati | 6,4          | 6,3          |
| Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati                                  | 5,2          | 4,8          |
| Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati                                            | 4,5          | 4,2          |

O'zbekiston bank tizimining moliyaviy natijalarida bir yil ichida sezilarli sifat o'zgarishlari ro'y berganini ko'rsatmoqda. Eng avvalo, sof foyda ko'rsatkichiga e'tibor qaratilsa, u 2025-yil 1-aprel holatida 3 419 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-aprelga kelib 5 524 mlrd so'mga – ya'ni 61,6 foizga – oshdi. Bunday o'sish sur'ati bank sektori uchun oddiy holat emas va uning ortida bir qancha omillar yotadi.

Foizsiz daromadlar dinamikasi bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'rsatkich 16 580 mlrd so'mdan 22 781 mlrd so'mga ko'tarilib, bir yil ichida 37 foizga o'sdi. Foizsiz daromadlar tarkibiga to'lov tizimlari komissiyasi, internet-banking va mobil ilova orqali amalga oshirilgan operatsiyalar uchun olinadigan xizmat haqlari, ekvayring daromdlari kiradi. Aynan shu kategoriyaning bunday keskin o'sishi FinTech va raqamli kanallarning an'anaviy bank daromad modelini qayta shakllantira boshlaganining moddiy isbotidir. Agar bir necha yil avval bank daromadining asosiy manbai foizli marjadan iborat bo'lgan bo'lsa, hozir foizsiz daromad foizli marja (9 882 mlrd so'm) bilan tobora tenglashib bormoqda – bu bank iqtisodiyotida tub o'zgarishni anglatadi.

Foizli marja ham o'sishda davom etmoqda – 8 819 mlrd so'mdan 9 882 mlrd so'mga yetdi. Biroq, bu o'sishning nisbiy sur'ati (12 foiz) foizsiz daromad o'sishidan (37 foiz) ancha past. Ushbu farq banklarning kredit operatsiyalaridan tobora ko'proq raqamli xizmatlar tomon moliyaviy og'irlik markazini ko'chirayotganidan dalolat beradi. Bu tendensiya adabiyotlarda "daromadlar diversifikatsiyasi" deb ataladi va raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan banklarning barqarorligini oshiruvchi omil sifatida qoraladi.

Xarajatlar bo'yicha ham muhim tendensiyaning ko'rishimiz mumkin. Jumladan, operatsion xarajatlar 6 123 mlrd so'mdan 7 767 mlrd so'mga – 27 foizga – oshdi. Yuzaki qaranganda bu salbiy ko'rsatkich bo'lib tuyulishi mumkin. Aslida esa raqamli infratuzilmaga, kibexavfsizlikka va IT mutaxassislariga sarflanayotgan xarajatlar hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi. Muhimi – ushbu xarajatlar o'sishining natijasi sifatida sof foyda 61,6 foizga oshgan. Boshqacha qilib aytganda, raqamli sohaga sarflangan har bir so'm banklarga o'rtacha ikki so'mdan ortiq sof foyda keltirmoqda – bu investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Jadvalning quyi, ya'ni bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) 2,1 foizdan 2,6 foizga, kapital rentabelligi (ROE) esa 11,6 foizdan 16,0 foizga sezilarli darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'sish bevosita raqamli xizmatlar hisobiga operatsion xarajatlarning kamayishi va mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati (4,5% dan 4,2% ga) va sof foizli daromadlarning majburiyatlarga nisbati (5,2% dan 4,8% ga) biroz pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ushbu holat FinTech kompaniyalari va raqamli banklar o'rtasidagi raqobat kuchayishi natijasida foiz stavkalari bo'yicha marjaning qisqarayotganini anglatadi. Ya'ni, an'anaviy banklar raqobatda omon qolish uchun mijozlarga arzonroq va qulayroq raqamli mahsulotlar taklif qilishga majbur bo'lmoqdalar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar banklar uchun resurslar sarfini optimallashtirish orqali umumiy foyda va kapital rentabelligini oshirishda asosiy drayver bo'lib xizmat qilmoqda.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli bank tizimlari va FinTech texnologiyalarining an'anaviy bank sektoriga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatadiki, moliya bozori fundamental transformatsiya davrini boshidan kechirmoqda. Tadqiqot davomida tahlil qilingan ko'rsatkichlar banklarning klassik faoliyat yuritish uslubi o'z o'rnini yuqori texnologik va mijozga yo'naltirilgan raqamli modellarga bo'shatib berayotganini tasdiqlaydi. Xususan, bank tizimi sof foydasining keskin o'sishi va daromadlar tarkibida foizsiz tushumlarning ulushi ortib borayotgani raqamli xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi. An'anaviy banklar uchun raqamli transformatsiya endilikda shunchaki innovatsion tanlov emas, balki bozor kon'yunkturasida yashab qolish va raqobatbardoshlikni saqlashning yagona strategik yo'nalishidir. O'zbekiston bank sektori misolida ko'rinadiki, yirik davlat banklari salmoqli aktivlar va resurs bazasiga ega bo'lsa-da, FinTech kompaniyalari taklif etayotgan tezkor va arzon xizmatlar an'anaviy institutlarni o'z ish uslublarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Sof foizli marjaning qisqarishi fonida kapital rentabelligining oshishi banklarning operatsion jarayonlarni optimallashtirish va masofaviy xizmat ko'rsatish orqali xarajatlarni jilovlashga erishayotganini ko'rsatadi. Biroq, texnologik yuksalish bilan birga kiberxavfsizlik risklari va tartibga solishning yangi mexanizmlariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Yuqoridagi ilmiy va amaliy tahlillardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ilgari surishimiz mumkin: strategik hamkorlikni rivojlantirish maqsadida an'anaviy banklar mustaqil ravishda murakkab dasturiy mahsulotlar yaratish o'rniga, FinTech startaplari bilan integratsiyalashgan ekotizimlar (SuperApp) yaratishi, ochiq banking (Open Banking) texnologiyalaridan unumli foydalanishi lozim; mijozlarning to'lov qobiliyatini baholashda faqat an'anaviy hujjatlarga tayanmasdan, alternativ ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashgan skoring tizimlarini kengaytirish zarur; risk-menejmentni kuchaytirish orqali biz raqamli tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kiber-himoya tizimlarini muntazam yangilab borish va mijozlar ma'lumotlari maxfiyligini ta'minlashning ko'p bosqichli mexanizmlarini joriy etishimiz mumkin. Umumiy xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar an'anaviy banklarni bozordan siqib chiqarmaydi, balki ularni yanada samaraliroq va moslashuvchan bo'lishga undaydi. Kelajakda faqatgina texnologik innovatsiyalarni bankning klassik barqarorligi bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olgan institutlarga moliya bozorida o'z yetakchiligini saqlab qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" // lex.uz. - URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Claessens S., Frost J., Turner G., Zhu F. Fintech credit markets around the world: size, drivers and policy issues // BIS Quarterly Review. - September 2018. - P. 29-49.
3. Philippon T. The Fintech Opportunity // NBER Working Paper No. 22476. - National Bureau of Economic Research, 2016. - 36 p.
4. Buchak G., Matvos G., Piskorski T., Seru A. Fintech, regulatory arbitrage, and the rise of shadow banks // Journal of Financial Economics. - 2018. - Vol. 130. - P. 453-483.
5. Vives X. Digital Disruption in Banking // Annual Review of Financial Economics. - 2019. - Vol. 11. - P. 243-272.
6. Abdullayev Y.A. Bank ishi: Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2017. - 612 b.
7. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2017. - 732 b.
8. Vaxabov A.V., Jumaev N.X., Burxonov U.A. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda bank-moliya tizimining roli. Monografiya. - T.: "Iqtisod-moliya", 2012. - 356 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari. <https://cbu.uz/uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>